

ZAMONAVIY O'QITISH METODLARI VA UNI O'QUV JARAYONIDA QO'LLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida O'rganish tushunchasi keng yoritilgan hamda maxsus fanlarning asosiy mavzulari tadbiiq qilingan. Unda O'rganishning omillari o'rganilib dars jarayonini tashkil qilish usuli keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: Zamonaviy o'qitish, aqliy hujum, muammoli o'qitish, diqqat, idrok, tushunish.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В этой статье широко освещается концепция обучения в образовательном процессе, а также применяются основные темы специальных дисциплин. В нем изложен способ организации процесса урока путем изучения факторов обучения.

Базовые понятия: современное обучение, мозговой штурм, проблемное обучение, внимание, восприятие, понимание.

MODERN TEACHING METHODS AND THEIR APPLICATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. In this article, the concept of learning in the educational process is widely covered, as well as the main topics of special disciplines are applied. It outlines a way to organize the lesson process by examining learning factors.

Basic concepts: modern learning, brainstorming, problem-based learning, attention, perception, understanding.

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab etishtirishni talab qiladi. Bu o'rinda ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qo'llanishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir.

Yangi pedagogik texnologiya ta'limning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan shakli, usuli va vositalarining mahsulidir. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda o'qituvchi dars jarayonida faqat o'zi ishlaydi, o'quvchilar esa kuzatuvchi bo'lib qolaveradilar. Ta'limning bunday ko'rinishi o'quvchilarning aqliy tafakkurini o'stirmaydi, faolligini oshirmaydi, ta'lim jarayonidagi ijodiy faoliyatini so'ndiradi.

Ta'lim jarayonida "O'rganish" tushunchasida xulqning yangi turlarini o'zlashtirish yoki mavjud bor xulqning o'zgarishini tushuniladi. O'rganish-bu shaxslarning tabiiy atrof-muhit bilan munosabati va hosil bo'lgan tajriba orqali yangi bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishidir. O'rganish shunday jarayonki, unda o'quvchi tabiiy atrof-muhit bilan munosabatlari va bunda hosil bo'lgan tajriba orqali xulqini o'zgartiradi. O'rganish rganish orqali o'quvchi idrokka, o'z fikriga, bilim, ko'nikmalariga va mahoratga erishadi. Yangi xulq shakllari va natijalar muvaffaqiyatli o'rganishning aniq dalillaridir.

O'rganishning quyidagi omillari mavjud:

- taqlid orqali;
- odat tufayli;
- muvaffaqiyat tufayli;
- urinish, xato va muvaffaqiyat tufayli;
- anglash, tushunib etish orqali.

1. Taqlid orqali o'rganish. Taqlid boshqa o'qituvchilarning xulqiy namunalarini qabul qilish va xuddi o'shanday taqlid qilishdir. Bu jarayon ongli yoki ongsiz ravishda o'tishi mumkin. Bu o'rganish turi oddiy harakatlarni o'rganishda eng samarali hisoblanadi.

Bu o'rganish turini kundalik hayotda ham kuzatish mumkin. Masalan, bolalar ota-onalariga yoki yoshlar o'z iftixorlariga taqlid qilishlari mumkin.

2. Odat tufayli. Bu o'rganish turi shartli refleks yoki klassik shakllantirish orqali o'rganish sifatida tavsiflanadi va rus psixolog olimi I. Pavlovning tadqiqotlariga asoslanadi. Shartli reaksiyalar odatlar hosil bo'lishida, baxtsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan xulq turlari paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega.

3. Muvaffaqiyat tufayli. O'rganishning bu usuli operativ shartlashtirish deb tavsiflanadi va shunday jarayonni nazarda tutadiki, bunda shartli reaksiyalarni rejali ravishda o'rganish qo'lga kiritilgan o'quv yutuqlari yordamida amalga oshiriladi. O'rganishning bu usuli amerikalik psixologlar Skinner va Torndauk tadqiqotlariga qarashlidir.

O'qituvchining mustaqil o'rganish va ishlash tomon qoygan har bir qadami kuzatiladi, agar u o'zlashtirishda o'rta darajadan yuqori natijaga erishsa, bu maqtov bilan tan olinadi. Maqtov shartli qo'zg'atuvchi hisoblanadi.

4. Urinish, xato qilish va muvaffaqiyat tufayli o'rganish. Bu usul operativ shartlashtirish bilan bog'liq, ammo bu erda muvaffaqiyat hissi shart emas. Bu usul dastlab tushunarsiz murakkab vaziyat bilan bog'liq. Bunda "urinishlar" orqali murakkab vaziyat hal qilinishi kerak (masalan, notanish kalitlar yig'imida to'g'ri kalitni topish). Bunda muvaffaqiyatsiz bo'lgan noto'g'ri echimlar keyinchalik qaytarilmaydi. To'g'ri echimlar esa muvaffaqiyat yoki qisman muvaffaqiyat tufayli aniqlanadi va uzoq vaqtga eslab qolinadi. Bu usul ko'p vaqt sarflashni talab qiladi, juda tashvishli va tasodifga asoslanganligi tufayli undan faqat muammolarni echishga qaratilgan xulqni mashq qildirish kerak bo'lganda foydalanish kerak.

5. Anglash, tushunib etish orqali o'rganish. Anglash, tushunib etish deb bexosdan biror avval ko'rinmagan "aloqani ko'rish" va tushunib etish nazarda tutiladi. Bu erda ilgari tushunarsiz bo'lgan jarayonlar, hodisalar, sabab-oqibat aloqalari fikran o'zlashtiriladi.

"Anglash, tushunib etish" bu aqliy jarayon natijasidir. Bunda ma'lumotlarni qayta ishlash paytida ularni qayta tartiblash va strukturalash orqali yangidan o'zaro bog'lanishlar hosil bo'ladi. Bu muammolarni o'rnida hal qilish mumkin emas, demak, barcha taklif qilingan turli echimlarni fikr, ya'ni tasavvur darajasida ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Muammoning echimi kutilmaganda kelib chiqadi va anglanadi, shuningdek, keyinchalik uni aqliy harakatlar uchun mashq va takrorlarsiz ishlatish mumkin.

O'qituvchi va amaliy o'qituvchi ta'limiy faoliyat mashqlarini o'tishda ongli ravishda o'rganishning turli usullaridan foydalanishi mumkin. Bu erda "anglash, tushunib etish" orqali o'rganish usuliga ko'proq e'tiborni qaratish kerakligi alohida ko'rsatiladi, chunki u o'zining uzoq ta'siri bilan ajralib turadi.

Tadqiqotlar insonlarning tinch, ijtimoiy tan olinish darajasidagi muhitda yaxshiroq va engilroq o'rganishlari mumkinligini ko'rsatdi. Nafaqat ijobiy emotsional va ijtimoiy muhit, balki maqsadga muvofiq tarzda jihozlanganligi, faol bo'la olish imkoniyatlarining borligi shular jumlasiga kiradi. O'rganish jarayonini iloji boricha o'quvchilarga qaratish uchun o'rganish predmeti o'quvchilar ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'quvchini o'rganishga qiziktirish uchun o'zlashtirish bo'yicha natijalari to'g'risida xabardor qilib borilsa va shaxsiy maqsadlar bilan moslashtirilsa, ularda qiziqish oshib boradi. O'quvchining o'quv predmeti bilan faol tarzda shug'ullanishi yuzaga kelganda o'quv jarayoni samarali rivojlanadi, chunki o'quvchida birlamchi va ikkilamchi motivlar yuzaga keladi. O'quvchining o'zlashtirishda erishgan natijalariga mos maqtov va tan olish so'zlarini aytish uning qiziqishini uyg'otishda ijobiy ta'sirga ega. Bu holat ularda o'z kuchlariga ishonchni va o'zlariga qo'yilgan talab darajalarini yuksaltiradi. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida turli qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, o'quvchining dastlabki bilimlari etarli emasligi, qiziqishi yo'qligi, muammolarni echish murakkabligi yoki topshiriqning qiyinligi bo'lishi mumkin. Bu qiyinchiliklarni o'quv maqsadiga qaratilgan yordamchi o'quv usullari orqali bartaraf etish mumkin.

Bularga quyidagilar kiradi: o'quv qiyinchiliklarini engishga qaratilgan yordamlar; echimni topishga qaratilgan yordamlar; ishlash va amalgam qaratilgan yordamlar; o'zlashtirilgan bilimlarni berish va yangi vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan yordamlar.

O'quv materialining tuzilmasi qancha yahshi tuzilgan hamda u qancha qonuniyatlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, bilimlar shuncha yaqin eslab qolinadi.

O'tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarga asoslanib Ixtisoslik fanlar samarali o'rganish bo'yicha quyidagi xulosalarni berish mumkin.

- O'rganish kichik qadamlar, ya'ni bosqichma-bosqich o'tkazilishi kerak va har doim dastlabki bilimlarga asoslanishi lozim.

- Bundan tashqari, o'rganish rag'batlantirilishi kerak, masalan, tan olish bilan muvaffaqiyatli o'rganish va uni davom etishni rag'batlantirish kerak (maqrov orqali).

- O'quvchilar o'zlarining o'rganishdagi yutuqlari haqida habardor bo'lsalar, qiziqtirish kuchaytiriladi.

- O'quvchilar "mustaqil faol bo'lish" tamoyili bo'yicha o'rganishadi. O'rganishning faol davrlarining tashkil qilish kerak.

- O'rganish o'tayotgan davrda ko'pgina qulay holatlarni qo'llash, o'quv vaziyatlarini o'zgartirib turish kerak.

- O'quvchilar qancha ko'p faol bo'lib o'rganishsa, o'zlashtirish davomli va muvaffaqiyatli bo'ladi. O'rganishning faollashtiruvchi usullaridan foydalanish va guruhviy o'rganishni o'tkazish kerak.

- O'quv jarayonida yordamchi usullarni qo'llash orqali o'rganish samarasini oshirish mumkin.

Maxsus fanlar o'quvchilarning kasb-hunarlarini egallashdagi yumushlarni mukammal bajarishlari uchun zaruriy dunyoqarashlarni, kasbiy fazilatlarining shakllanishidagi zaruriy bilim va ko'nikmalarni mustaqil va ijodiy qo'llashni ko'p jihatdan belgilaydi.

Kasb-hunar ta'limida maxsus fanlarni o'rganish, ularning nazariyasi va amaliyotida, mazmuni, shakl va uslublarini tanlashda hamda o'quv maqsadlarini belgilashda o'ziga hoslikni talab etadi.

Maxsus fanlardan o'quv jarayonlarini tashkil etishda o'quv materiallarining soddadan murakkablashib, mazmunning chuqurlashib borishi, ishlab chiqarish jarayonining ketma-ketligiga bog'liq holda mashg'ulotlar tizimlashtiriladi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotning tizimlashtirilishi o'quv materialining mazmunini butunligicha qamrab olishni, bayon etishini, mustahkamlashini va mavzularning ketma-ketligiga mos holda o'rganilishini hamda o'zlashtirish darajasini nazorat qilishni ta'minlaydi. Maxsus fanlarni o'rganishda, ta'lim uslublarini tanlashda o'quvchilar va o'qituvchilar faolligini, mustaqilligini, fikrlashning tezkorligini ta'minlashga mos keladigan uslublarni tanlashda alohida e'tibor beriladi. O'rganish shunday jarayonki, unda o'quvchi tabiiy atrof-muhit bilan munosabatlari va bunda hosil bo'lgan tajriba orqali hulqini o'zgartiradi. O'rganish orqali o'quvchi o'z fikriga, bilim, ko'nikma va mahoratga erishadi.

Amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maxsus fanlarni o'rganishga quyidagi dastlabki vaziyatlar ham ta'sir qiladi:

- hatti-harakatlarga reaksiya ta'siri, ya'ni biror harakat bajarilishining murakkabligi;
- o'rganishga ishtiyoq, ya'ni aniq tasavvur qilingan o'quv maqsadlariga erishishga intilish;
- tashqi turtkilar, ya'ni qiziqishi bo'lmagan o'quvchiga qiziqishini uyg'otish maqsadida o'qituvchi turtki beradi

O'rganish sabablari "diqqat" va "idrok" tushunchalari bilan chambarchas bog'liqdir:

1. *Diqqat*. Dastavval o'quvchilarning diqqatini o'quv obektlariga jalb etish kerak.

2. *Idrok*. Sensorik ta'sirlar orqali (ko'rish, eshitish, hid bilish, maza bilish, tegish, ushlab ko'rish) o'quvchi qandaydir ahborotni qabul qiladi.

3. *Tushunish*. Qabul qilingan ahborotni tahlil qilish va ma'nosini aniqlash orqali ma'lum tasavvur paydo bo'ladi. O'quvchining qabul qilishiga qarab, bu tasavvur ma'lumotning mazmuni haqida tushuncha hosil bo'lishiga olib keladi.

O'qituvchi bu o'zaro aloqalarni nazorat qilib borishi kerak, chunki u o'z imkoniyatlari bilan o'quvchining diqqat va idrokiga ta'sir qilib, muvaffaqiyatli o'rganishga asos solishi mumkin. O'rganishni bir necha bosqichlardan iborat bo'lgan jarayon sifatida tushunish mumkin. Bir bosqichdan keyingisiga o'tguncha, jarayon murakkablashib boradi.

1. Olimov Q. T. va boshqalar. Ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2004.
2. Mirsaidov K. J. Ixtisoslik fanlarini o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi. – Toshkent: Shiituvchi, 1996.
3. Rashidov A. Sh. Matematika darslarida ta'limning shaxsga yo 'naltirilgan texnologiyasi. Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet
4. Rashidov A.Sh. Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishi talabalari uchun matematik fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish. Science and Education №9. С 283-291
5. Халлоқова О.О., А.Рашидов Пороговое собственное значение модели Фридрихса. Молодой ученый, 2015 №15. С. 1-3
6. Rashidov A. Sh. Interaktivnyye metody pri izuchenii temy "Opredelennyy integral i ego prilozheniya". Nauchnyye issledovaniya. № 34:3. С 21-24
7. Rashidov A. Sh. Yoshlar intellektual kamolotida ijodiy tafakkur va kreativlikning o'rni. Pedagogik mahorat 2021 yil №7. 114-116 bet.
8. Rashidov A.Sh. Matematika fanlaridan talaba yoshlar ijodiy tafakkurini rivojlantirish. Fan va jamiyat №3. С 45-46
9. Rashidov A.Sh. Замонавий таълим ва инновацион технологиялар соҳасидаги илғор тажрибалар. Центр научных публикаций. 2021-yil. 3-son. 68-72 bet.